

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSs.03/30.01. 2021.Ped.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BAYTO'RAEVA NASIBA ISMATULLAEVNA

**MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF
O'QITUVCHILARINING IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2022

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Oglavlenie avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD) po pedagogicheskim
naukam**

**Sontents of dissertation abstrast of dostor of philosophy (PhD) on pedagogisal
ssienses**

Bayto'raeva Nasiba Ismatullaevna

Mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy kompetentligini rivojlantirish..... 3

Байтураева Насиба Исматуллаевна

Развитие творческой компетентности будущих учителей начальных классов в самостоятельной образовательной деятельности 25

Bayturayeva Nasiba Ismatullayevna

Development of sreative sompetense of future primary school teachers in independent edusational astivities 47

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 51

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSs.03/30.01. 2021.Ped.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BAYTO'RAEVA NASIBA ISMATULLAEVNA

**MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF
O'QITUVCHILARINING IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2022

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Ped2441 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi – www.tdpu.uz hamda “ZiyoNet” axborot-ta'lim portali –www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xalikov A'zam Abdusalomovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xakimova Muxabbat Fayzievna
pedagogika fanlari doktori, professor

Isakulova Nilufar Janikulovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil ____ soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri CHilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871)276-80-86, e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri CHilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871)276-80-86

Dissertatsiya avtoreferati 2022 yil ____ da tarqatildi.

(2022 yil “____” da _____ raqamli reestr bayonnomasi)

Z.N.Mamarajabova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

R.G.Isyanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, p.f.n., dotsent

S.S.Bulatov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kasbiy yetuk, intellektual salohiyatli hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim muammolari masalalari bo'yicha butunjahon Forumida qabul qilingan 2030 yilgacha mo'ljallangan kontsepsiyada «...Barcha uchun butun hayoti davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish...» ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lib, bu bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodkorligini yanada rivojlantirish, amaliyotda qo'llashning integratsion tizimni takomillashtirish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsiyalar va ta'lim texnologiyalari hamda zamonaviy tashkiliy tuzilmalarda foydalanish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'limi va ilmiy tadqiqot muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonining asosiy bosqichi sifatida ko'rilayotgan ijodiy kompetentlikni rivojlantirish, bo'lajak mutaxassislarning pedagogik mahoratini oshirish va ularning intellektual ijodiy kompetentligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetentligini rivojlantirishda ta'lim muassasalarida ijodiy yondashuvdan foydalanish, ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik ta'minotini yaratish, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda ish beruvchining talablarini inobatga olgan holda kasbiy va shaxsiy sifatlarni innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ham olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda boshlang'ich ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ayniqsa, pedagoglarning faoliyatining sifatini hamda malakasini uzluksiz oshirish orqali keng islohotlar olib borilishi natijasida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning keng va o'ziga xos tizimi yo'lga qo'yildi. Bu borada ijodiy kompetentlikni shakllantirishning elektron monitoring tizimini yaratish, lokal modulli texnologiyalarni tatbiq etish, ijodkorlikni baholash mezonlari va parametrlarini aniqlashtirishning prognostik modellarini tatbiq etishning me'yoriy asoslari ishlab chiqilmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish»¹ kabi ustuvor vazifalar va yo'nalishlar belgilangan. Natijada, respublikamizda bo'lajak mutaxassislarning pedagogik faoliyatida kasbiy tayyorgarlik darajasini va ijodiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» Farmonlari, 2016 yil 14 sentyabrdagi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". PF-60-son Farmoni . –T.: 2021y.

O'RQ-406 «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida» Qonuni, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy- ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustivor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oliy ta'lim tizimida o'qituvchilarning ijodiy kompetentligini rivojlantirish A.A.Abduqodirov, B.R.Adizov, A.R.Arifjanova, Yu.M.Asadov, O'.SH.Begimqulov, R.X.Djuraev, R.G.Isyanov, B.Ziyomammedov, O'.Q.Tolipov, SH.S.SHaripov, T.Sodiqova, R.G.Safarova, Z.Yuldashev, E.G'ozievlar tomonidan tadqiq etilgan.

Kasbiy kompetentlikni rag'batlantirish, kognitiv va qadriyatlar sohalarining rivojlanish R.Antonenko, A.L.Andreev, N.K.Anoxina, E.A.Agatstsi, G.V.Bragina, V.P.Bespal'ko, V.A.Bolotov, A.Belyaeva, D.S.Ermakov, V.I.Zvereva, O.N.Proxorova, G.G.Plotnikova, A.V.Xutorskiy, S.S.Kashlev, I.Kovalevskiy, A.P.CHernyavskaya, E.N.SHiyanov, S.D.Yakushevalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda shaxs xususiyatlari va qobiliyatlari, shaxsning ijodiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi tashqi sharoitlar, o'z-o'zini rivojlantirish masalalari Alex Moore E.A.Agatstsi, Delemar le Deist, D.D.Tremblay, Hutmacher Walo, A.Maslou, D.Perkins, L.R.Humes, S.U.Gippius, T.Luybard, J.P.Gilford kabi pedagog-psixologlarning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy- tadqiqot ishlari rejasining «Talabalarni ijtimoiylashtirish va oliy pedagogik ta'lim tizimida rahbarlik faoliyatiga tayyorlash strukturasi ishlab chiqish» amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2015-2017 yy.).

Tadqiqotning maqsadi mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik falsafiy imkoniyatlarini tahlil qilish;

mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirishning akmeologik tizimining tarkibiy qismlarini aniqlash;

mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modelini takomillashtirish;

mustaqil ta'lim faoliyatida boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni belgilanib, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Qo'qon davlat pedagogika instituti, Toshkent davlat pedagogika universitetilari 5111700 -boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishi ta'lim yo'nalishining 304 nafar talabalari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirishning shakl, mezon va vosita tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini olib borishda muammoga oid siyosiy, falsafiy, nazariy tahliliy sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, diagnostik so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodlar, prognostik ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish, pedagogik eksperiment va matematik metodlar ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini refleksiya harakatini bilish, tanqid qilish va me'yoralashtirish funksiyalarini protsessual ketma-ketligini rejalashtirish, natijalarini baholash, qiyinchiliklarni bartaraf etish strategiyasi elementlarini o'zini-o'zi kuzatish, muntazam infrospektsiya va restrospektsiya qilish asosida rivojlantirilgan;

mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirishning akmeologik tizimi mustaqil ta'limning qadriyatli-semantik yo'naltirilganligi, pedagog faoliyatini amalga oshirishning kognitiv-konstruktorlik elementi, ichki shaxsiy resurslar muammoli vaziyatlarni konstruktiv loyihalashtirishning funktsional elementlari tarkibidan iboratligi aniqlangan;

mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish modeli shaxsning ijodiy imkoniyatlari, qadriyatlar asosida yo'naltirilganligi (antityud), munosabatlar, ichki va tashqi dinamik an'analar, fikrlash stereotiplari, ijodiy qiziqishlarni bir-biridan bosqichma-bosqich o'tish ketma-ketligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi pedagogik jarayonlarning disseminatsiyasini, ijodiy to'garak faoliyatini tashkillashtirish, pedagogik izlanishlar olib borish, qiziqishlar, bilimlar, ichki kechinmalar, muloqot ehtiyojlarini namoyish etish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy kompetentligini rivojlantirishning metodik ta'minoti rivojlantirilgan;

mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish tizimi tarkibiy qismlari aniqlashtirilgan;

mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirishning samarali metod, shakl va vositalari hamda uning aloqadorlik va izchillik tamoyillari aniqlangan;

mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar to'plami ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoga pedagogik- psixologik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mustaqil ta'lim faoliyatida ijodiy kompetentligini rivojlantirish hamda ta'lim sohasidagi respublika, chet el olimlar ishlariga asoslanganligi; ilmiy tadqiqot ishining vazifalariga mos keluvchi, bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi; tajriba-sinov ishi bo'yicha olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirishda mustaqil ta'lim faoliyati tushunchasi haqidagi ilmiy ma'lumotlar, tasavvurlarga aniqlik kiritish; ilmiy psixologik-pedagogik adabiyotlarda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi strukturasi ijodiy kompetentlikning tarkibiy qismlarining nazariy yondashuvlar bilan boyitilganligi; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil qilishga doir ustuvor yo'nalishlarni aniqlaganlik bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining mustaqil faoliyatida ijodiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik texnologiyasini takomillashtirish; mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisiga ijodiy kompetensiyaning rivojlanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kichik yosh o'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil qilish imkonini berganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligining refleksiya harakatini bilish, tanqid qilish, me'yorlashtirish funksiyalarini protsessual ketma-ketligini rejalashtirish, natijalarini baholash, qiyinchiliklarni bartaraf etish strategiyasi elementlarini o'zini-o'zi kuzatish, muntazam infrospektsiya va restrospektsiya qilish asosida rivojlantirilgan oid takliflardan «Mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari» nomli elektron dasturni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Intelektual mulk agentligining 2020 yil 20 dekabrda DGU 263 raqamli guvohnomasi). Natijada, umumkasbiy fanlar bo'yicha interfaol amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish samaradorligini oshirishga erishilgan;

mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirishning akmeologik tizimi mustaqil ta'limning qadriyatli-semantik yo'naltirilganligi, pedagog faoliyatini amalga oshirishning kognitiv-

konstruktorlik elementi, ichki shaxsiy resurslar muammoli vaziyatlarni konstruktiv loyihalashtirishning funksional elementlari tarkibidan iboratligi aniqlangan;

mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish modeli shaxsning ijodiy imkoniyatlari, qadriyatlar asosida yo'naltirilganligi (antityud), munosabatlar, ichki va tashqi dinamik an'analar, fikrlash stereotiplari, ijodiy qiziqishlarni bir-biridan bosqichma-bosqich o'tish ketma-ketligini ta'minlash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalardan 5110700-Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi talabalariga «Pedagogik kompetentlik» nomli darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 31 maydagi 237-son buyrug'i asosida berilgan 237-205 raqamli guvohnoma). Natijada pedagogika turkum fanlarining mazmunini boyitilishiga xizmat qilgan;

mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi pedagogik jarayonlarining tarkibiy qismlarini, ijodiy to'garak faoliyatini tashkillashtirish, pedagogik izlanishlar olib borish, qiziqishlar, bilimlar, ichki kechinmalar, muloqot ehtiyojlarini namoyish etish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalardan A-1-148 raqamli «Ta'lim mazmunini modernizatsiyalash asosida o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi» mavzusidagi amaliy loyihaning bajarilishida foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2021 yil 18 sentyabrdagi 02-07-2457/04-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mustaqil ta'lim faoliyatida ijodiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi samaradorligining ortishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta respublika hamda 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 14 ta ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta, shundan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, asosiy matn 143 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti ko'rsatilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy yo'nalishlariga mosligi belgilangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi va ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari**» deb nomlanib oliy ta'lim talabalarining ijodiy kompetentligini rivojlantirishning psixologik - pedagogik jihatlari, ularda ijodiy kompetentlikni rivojlantirishning shart-sharoitlari va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati yoritib berilgan.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini faollashtirish muammosi o'qitish nazariyasi va amaliyotida hamisha eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Davlat ta'lim standartlarida talaba shaxsining ijodiy salohiyatini rivojlantirish, o'z salohiyat va imkoniyatlarini amalga oshirish va uning tayyorlanganlik darajasi qanaqa bo'lishidan qat'iy nazar uning individualligini saqlab qolish uchun shart-sharoitlar yaratish zarurligi belgilab qo'yilgan. Standartning eng muhim vazifalaridan biri mamlakatimiz ichki inson kapitalining raqobatbardoshligini oshirish orqali mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy maqsad va vazifalarini amalga oshirishni ta'minlashdan iborat bo'ladi. Umumta'lim maktablarida asosiy e'tibor o'qituvchi va talabaning intellektual va ijodiy hayotiga qaratiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi mustaqil ta'lim faoliyati va ijodiy vazifalarni o'rganish va hal qilishning nostandart usullarini ishlab chiqishga ko'proq moyil bo'lib, bu davrda talabaning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda yo'l qo'yiladigan kamchiliklarni keyingi yillarda isloh qilish qiyin bo'ladi. Oliy ta'lim talabalarida boshdan kechirgan va o'rganilgan narsa, voqea, hodisa va bilimlar katta psixologik barqarorligi bilan ajralib turadi. Ijodiy yondashuvlar bilan ishlaydigan o'qituvchi talabaning ijodiy faoliyati uchun kuch beruvchi va saqlab qoluvchi vositaga aylanishi mumkin. Ushbu yo'nalishda oliy ta'lim tizimi jiddiy muammolarga duch kelmoqda, bu talabalarning kasbiy bilimlari hamda tayanch ma'lumot olish jarayonida mas'uliyat hissi va ijtimoiy tajribani rivojlanganlik darajasiga ham taalluqli. SHu bois oliy ta'lim muassasalarida talabalariga ta'lim berish jarayonida ularning bo'lajak kasbiy faoliyati uchun mas'uliyatni o'z zimmlariga olishi kerak.

Ijodiy kompetentlilik muammosini tushunish uchun «ijod» kategoriyasining tarkibiy qismlarini tahlil qilish lozim. Bu erda shaxs va ijod o'rtasidagi o'zaro faoliyat yo'llari, ta'lim va pedagogikani kommunikativ pedagogika, erkin pedagogika va gumanistik falsafa g'oyalarini birlashtiruvchi ijod muhitiga aylantirish yo'llari muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ilmiy adabiy manbalarning tahlili, ijodga bag'ishlangan falsafiy, psixologik va pedagogik tadqiqotlar ijodning mohiyatini tushunish, ijodiy faoliyatning tuzilishi va mazmunini ishlab chiqish, ijodiy faoliyat tajribasini avloddan-avlodga o'tkazish bilan bog'liq muammolarga qiziqish jarayoni asrlar davomida susaymaganligini ko'rsatdi.

Ijod – insonning moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga yo'naltirilgan faoliyatidir. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste'dodi namoyon bo'ladi.

Ijod dastlab inson tasavvurida tug'iladi, keyin ijodga taaluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi, boshqalar bajargan ishlar tanqidiy nuqtai nazardan o'rganiladi, tahlil etiladi, kuzatishlar, tajribalar o'tkaziladi. SHundan so'ng tajriba natijalariga asoslanib mantiqiy xulosalar chiqariladi, farazlar ilgari suriladi va bularning barchasi tajribada sinab ko'riladi, mavhum qarashlar oydinlashtiriladi, yangilanadi va to'ldiriladi.


Bugungi kunda, birinchi J.Gilbford tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan «kreativlik» (sgeatitu) atamasi ijodkorlikka bo'lgan qobiliyatni anglatish uchun qo'llaniladi. Kreativlik insonning ijodiy qobiliyati yoki ijodiy iste'dodi sifatida ta'riflanadi va shaxsning nisbatan barqaror xususiyatini tashkil etadi. Kreativlik insonning umumiy ma'noda xulq-atvorini va bunday xulq-atvorning natijasini anglatishi, fikrlashda, turli faoliyat turlarida, individual qobiliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Ijodiy kompetentlikni rivojlantirish ijodiy ta'lim makonining mavjudligini taqozo etadi. Bizning tushunishimizga ko'ra, ijodkor o'qituvchi - o'z maqsadlari, qadriyatlar va e'tiqodlariga ega, hayotiy muammolarni hal qila oladigan, o'z salohiyat va imkoniyatlarini amalga oshirishga, o'zini o'zi rivojlantirishga, o'z shaxsiyatini namoyon qilishga, o'z shaxsiy salohiyati va qobiliyatlarini taqdim qila olishga tayyor, nostandart tafakkurga, o'z shaxsiy identifikatsiyaga, intellektual mustaqil ta'lim ko'nikmalariga ega, yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlar yarata oladigan shaxsdir.

Mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligining mohiyatini aniqlash uchun biz Aflotun va Gegelning falsafiy tadqiqotlariga murojaat qildik. Ushbu buyuk mutafakkirlar «mohiyat» fenomenida boshqa barcha narsalardan farqli ravishda va muayyan holatlar ta'siri ostida o'zgaruvchan holatlardan farqli o'laroq, berilgan narsaning ma'nosini ko'rishgan. Ular narsalarning mohiyatini mustaqil, o'zgarmas va mutlaq narsa sifatida talqin qilishgan. Mustaqil ta'limning samaradorligi intellektual malakalarning rivojlanganlik darajasiga, shuningdek, o'qituvchining o'quv faoliyatiga, bilimga bo'lgan oldindan o'rnatilgan ko'rsatmalari, shuningdek, uning iroda va boshqa shaxsiy sifatlariga bog'liq.

N.A.Muslimovning ilmiy ishlarida talaba mehnatining samaradorligi uning muvaffaqiyatli ijodiy mustaqil ta'lim faoliyati bilan korrelyatsiyada bo'lishini tushuntiriladi. Mustaqil ta'limning individual va guruhshaxslar shakllari mavjud bo'lib, guruhshaxslar shakllari hamkorlikdagi intellektual faoliyat olib borish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Mustaqil ta'lim o'qituvchining yordamisiz mustaqil mashg'ulotlar orqali bilim olishdir. Mustaqil ta'lim o'qituvchining ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish va uning ichki shaxsiy resurslarini faollashtirishga qaratilgan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining mustaqil ta'lim faoliyatining maqsadi ijodiy kompetentlik va kasbiy mahoratning yangi darajasiga erishishdir. Ijodiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida talaba nafaqat kasbiy faoliyat sub'ekti sifatida, balki shaxs darajasida shakllanishi ham amalga oshadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi mehnatining sifati ta'lim va tarbiya usullari va shakllarini tanlashdan, ulardan mohirona foydalanish va talabaning mustaqil ta'lim olganlik darajasiga bog'liqdir (1-rasm).

Ijodiy to'garak ishida kvalifikatsiya kategoriyalari turli xil bo'lgan talabalarning tajriba almashishida ijodiy o'zaro faoliyatni yo'lga qo'yish usullaridan foydalaniladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim faoliyatining yakuniy va oraliq natijalari insho (esse), ochiq dars, ilmiy konferentsiya yoki pedagogik kengashdagi chiqish, ish dasturi, didaktik material, metodik qo'llanma, ilmiy-metodik jurnalda maqola chop qilish kabi ijodiy mahsulotlarni tayyorlash va taqdim etishda qayd qilinadi.



1-rasm. Mustaqil ta'limning turli darajalari

Ijodiy faoliyatni amalga oshirish va tashkil etishga bo'lgan zaruriyat va tayyorlik o'rtasidagi farqlar talabalarni ijodiy mustaqil ta'limning yana bir jabhasiga o'tishga undaydi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchining ichki dunyosini o'zgartirish, uning mazmun va mohiyatan o'zgartirishi, pedagogik faoliyatda ijodiy o'z shaxsiyati qobiliyati va imkoniyatlarini namoyon etish uchun yangi imkoniyatlarni izlash zarurligini anglashi talabaning ijodiy rivojlanishining asosiy shartidir. O'quv faoliyatining boyligi, ko'p qirraliligi va emotsional intensivligi talabalarni o'zlarini kasb-hunar sifatida o'rganishga undaydi. Mustaqil ta'limning insonning o'ziga maqsadli ta'sir ko'rsatish sifatidagi asosiy mexanizmi shaxsning belgilangan xususiyatlari, sifatlari va kasbiy faoliyatning ob'ektiv talablari o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish, tinimsiz murakkablashib boruvchi ijodiy vazifalarni bajarishdir.

Kasbiy faoliyat jarayonida rivojlanish mexanizmiga ifoda berishadi: rivojlanish ongli, yo'naltirilmagan tartibga solish tomonga tashqi tartibga soluvchi kuchlarning kuchi, tashqi omillar belgilaydigan harakat usuli bilan amalga oshiriladi. Kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmini bunday tushunish bizni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirishga ko'maklashuvchi va to'sqinlik qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni o'rganishga undaydi. Bu masalalarni keyingi paragrafda ko'rib chiqamiz.

Ijodiy to'garakda foydalangan BBSO'larning mustaqil ta'lim faoliyati shakllari

kouching (murabbiylik) (qo'yilgan maqsadga erishish uchun individual mashg'ulotlar);

Pedagogikadagi yangiliklarni o'rganish va tahlil qilish;

Ijodiy xarakterga ega tadbirlarda ishtirok etish;

Ijodiy rivojlanish muammosi bo'yicha ilmiy-ilmit tadqiqot ishlari;

Shaxsiy o'sish mashg'ulotlarida qatnashish;

Pedagogik (o'zi va boshqalarning) tajriba haqida puxta fikrlash;

atamalar bilan ishlash;

pedagogik vaziyatlar tahlili;

pedagogik tajribani o'rganish maqsadida hamkasblarning darslariga kirib kuzatish.

Innovatsion darslarni, sinfdan tashqari tadbirlarni nazariy ishlab chiqish va amalga tadbir qilish;

2-rasm. Ijodiy to'garakda foydalangan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim faoliyati shakllari

Dissertatsiyaning **Mustaqil ta'limda boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish tizimi** deb nomlangan ikkinchi bobida mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, shartlarining didaktik kompleksini amaliyotda qo'llash yo'llari, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy kompetentligini rivojlantiruvchi metodlar tizimi va vositalarini tanlash hamda ularni tavsiflash masalalari o'z ifodasini topgan.


Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim faoliyatida ijodiy kompetentligini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun biz yondashuvlarni (akmeologik, tizimli, kompetentlilik, shaxsiy-faoliyat, kontekst, androgogik, yaxlitlik, tizimli-faoliyat) aniqladik. Biz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy malakasini rivojlantirishning pedagogik modelini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyati uchun mas'ul bo'lgan yakuniy natijaga erishish maqsadiga bo'ysunadigan bir biriga o'zaro bog'liq strukturaviy va funksional komponentlarni o'z ichiga olgan akmeologik tizim deb hisoblaymiz.

O'tkazilgan ta'kidlovchi tajriba-sinov natijasida olingan ma'lumotlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda ijodiy kompetentlikning paydo bo'lishi zarur bo'lgan yangiliklarning majmui belgilangan holatdagina yakuniy natijaga erishishning jarayoniga bog'lik. Pedagogik faoliyatni monitoring qilib, biz ijodiy malakasini rivojlantirish ustida ishlaydigan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ijodiy faoliyatga ehtiyojning yo'qligi; ijodiy faoliyat natijalarida qadriyat munosabatlarning shakllanmaganligi; talabaning oliy pedagogik ma'lumotli o'qituvchilarning bilim olish faoliyatining pastligi; mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ijodiy malakasini rivojlantirishda hamkasblarining qo'llab-quvvatlashlari etishmasligi bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelishini aniqladik.

YUqoridagilardan kelib chiqadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tasarruflarida mustaqil ta'limning etarli pedagogik shakl va vositalarining o'ta jiddiy arsenaliga ega bo'lib, boshlang'ich maktabning ta'lim jarayonida yangiliklarni joriy qilish g'oyalari va ijodiy faoliyat va qadriyatlar jihatdan ijodiy faoliyatga va uning natijalariga bo'lgan asosida qurilgan mustaqil ta'lim faoliyatida ijodiy kompetentlikni rivojlantirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.


Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish muammosini, uning motivlarining qadriyat komponenti, professional faoliyat jarayonida shakllanadigan tuzilishi va anglanishini hisobga olgan holda hal etish lozim. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim faoliyatida ijodiy kompetentligini rivojlantirishning taqdim etilgan pedagogik modeli maqsadga muvofiq, dinamik, yaxlit va o'z-o'zini rivojlantiradigan xossaga ega.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim faoliyatida ijodiy kompetentligini rivojlantirishning taqdim etilgan pedagogik modeli maqsadga muvofiq, dinamik, yaxlit va o'z-o'zini rivojlantiradigan xossaga ega (1-rasm). Pedagogik modelda qo'yilgan maqsadga muvaffaqiyatli erishishni ta'minlash uchun mustaqil ta'lim faoliyatida ijodiy kompetentlik darajasini oshirishga sharoit yaratish yo'li bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini takomillashtirishning bir bosqichidan boshqa bosqichga o'tishning texnologik ketma-ketligi ishlab chiqilgan.



3-rasm. Mustaqil ta'limda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish modeli

Mustaqil ta'lim faoliyatida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish uning maqsadlarini belgilash, maqsadga erishishning asosiy bosqichlari, shakllari, usul va vositalarini ajratib olish, natijalar samaradorligini aniqlash kabi ishlarni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim faoliyatini tavsiflashda uning sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini, rejani amalga oshirish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlar yaratilishini, individual mustaqil ta'lim faoliyatining ijodiy ustaxonada amalga oshiriladigan ish bilan uyg'unligini e'tiborga olish lozim. Quyida keltirilgan 4-rasmda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim faoliyatida ijodiy kompetentligini rivojlantirishning texnologik jarayoni grafik ko'rinishda keltirilgan.



4-rasm. Mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi

Mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi. Faoliyatning shakllari, vositalari va usullari majmuini birlashtirgan hamkorlikka asoslangan o'zaro faoliyat ijodiy muammo va vazifalarni samarali hal qilish imkonini beradi. Mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash uchun akmeologik, tizimli, kompetentlik, shaxsiy-faoliyat, kontekst, androgogik, yaxlitlik, tizimli-faoliyat

yondashuvlari nuqtai nazarlaridan: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z-o'zini rivojlantirishning asosiy elementi sifatida ijodiy kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan mustaqil ta'lim faoliyati; o'z-o'zini tarbiyalash jarayonining yo'naltirilganligi; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining mustaqil ta'lim jarayonini ijodiy faoliyatining pedagogik tajribasini disseminatsiya qilishga qaratilganligi; mustaqil ta'lim faoliyatida ijodiy kompetentligini rivojlantirishda akmeologik, tizimlilik, kompetentlik, shaxsiy-faoliyat, kontekst, androgogik, yaxlitlilik, tizimli-faoliyat yondashuvlarni amalga oshirishning yaxlitligi; mustaqil ta'lim jarayonida ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir qiluvchi o'qituvchining sub'ektligining rivojlanishiga qadriyatli munosabat kabi shart-sharoitlar aniqlangan.

Dissertatsiyaning «**Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uning natijalari tahlili**» deb nomlangan uchinchi bobida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarining mazmuni, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy kompetentligini rivojlantirish tajriba-sinov natijalarining matematik-statistik tahlili va samaradorligi yoritib berilgan.

Tadqiqotimizning pedagogik tajriba sinov ishlari qismidan ko'zlangan maqsad bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyani amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini sinovdan o'tkazish edi.

Ishtirokchilar tasodifiy, biroq tanlov guruhi tuzish talablari doirasida tanlangan. Tanlov guruhi barchani qamrab oluvchi bo'lgani sababli tanlov guruhini tuzish doirasi ham barcha talabalarning to'liq ro'yxatini tashkil qildi.

Biz tashxisni mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirishning samaradorligi haqidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, saqlash va tarqatish bo'yicha monitoring ishlari shakllaridan biri deb belgilaymiz.

Dastlabki va yakuniy tashxis ushbu tadqiqot ishida aniqlangan mezon va ko'rsatkichlarga muvofiq dastlabki va yakuniy natijalarni aniqlash uchun mo'ljallangan edi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini shakllantirish darajasini aniqlashga qaratilgan tashxis ishlarini biz 2016-2017 o'quv yili, 2017-2018 o'quv yili, 2018-2019 o'quv yili davomida amalga oshirdik.

Nazorat va eksperiment guruhlaridagi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari soni 303 nafar: 152 nafar talaba – nazorat guruhi, 152 nafar talaba - eksperiment guruhini tashkil qildi. SHulardan nazorat va eksperiment guruhlariga A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti 103 nafar: 52 nafar talaba – nazorat guruhida, 50 nafar tajriba guruhida, Qo'qon davlat pedagogika instituti 100 nafar: 50 nafar talaba – nazorat guruhida, 50- nafar tajriba guruhida, Toshkent davlat pedagogika universitetida 101 nafar: 51 nafar talaba – nazorat guruhida, 50- nafar tajriba guruhida tajriba-sinov ishlari o'tkazilgan.

Past, o'rtta yoki yuqori qiymatga mos tanlangan ko'rsatkichlarga ko'ra darajali farqlash quyidagi keltirilgan 1-jadvalda aks ettirilgan.

Tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlar shakllantiruvchi eksperimentning yakuniy natijalarini umumlashtirish uchun foydalanildi.

Eksperiment natijalarini birinchi mezon bo'yicha baholash – o'qituvchining professional faoliyatida ijodkorlikka yo'naltirilganlik

Mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining professional faoliyatida ijodkorlikka yo'naltirilganlikning ko'rsatkichlarini baholash uchun biz o'qituvchi V. I.Zverevning shaxsiy sifatlarini tashxis qilish usulidan foydalandik. Ushbu usul bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentligining quyidagi kabi muhim tarkibiy qismlarini baholashga imkon berdi:

1-jadval

Darajali farqlash

Mezonlar	Ko'rsatkichlar	DARAJALAR			Ballarning o'rtacha miqdori		
		Past	O'rtacha	YUqori			
O' qituvchining professional faoliyatida ijodga yo' naltirilganlik	SHaxsning ijodga yo'naltirilganligi	0-19	19-36	37-54	9,5	27,5	45,5
	SHaxsning ijodiy imkoniyatlari	0-40	41-78	79-117	20	59,5	98
	Qadriyatlar orientatsiyasi	0-5	6-10	11-15	2,5	8	13
O' qituvchining ijodiy vazifalarni echishga tayyorlik darajasi	Ilmiy-nazariy tayyorlik	0-5	6-8	9-10	2,5	7	9,5
	Metodik tayyorlik	0-5	6-8	9-10	2,5	7	9,5
	Ijodiy faoliyatga shaxsiy tayyorlik	0-5	6-8	9-10	2,5	7	9,5
Verbal kreativlik	Boshqalarga o'xshamaslik (originallik)	$0 < K < 0,71$	$0,72 < K < 0,9$	$0,91 < K < 1,0$	0,355	0,81	0,855
	Noyoblik (unikallik)	0-2	3-15	16-19	1	8	17,5
	Mahsuldorlik	0-10	11-38	39-50	5	24,5	44

a) shaxsning ijodiy yo'naltirilganligi, jumladan, motivlar va ehtiyojlar, emotsiyalar, qiziqishlar;

b) talabaning qabul qilishi, tafakkuri, xotirasi, moslashuvchanligi, aqlining reaktivligi va tanqidiyligi, nutqi, irodasi va qobiliyatlariga bog'liq bo'lgan ijodiy imkoniyatlari;

v) qadriyat orientatsiyalari.

Ballar yordamida baholash o'qituvchining shaxsiy sifatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Ushbu usulning afzalligi uning ob'ektivligidan; past, o'rta yoki yuqori qiymatga mos ma'lumotlarni darajaviy farqlash imkoniyatidan iborat.

Ma'lumotlarni umumlashtirish va dastlabki diagnostika ma'lumotlarining ko'rgazmaliligini yanada oshirish uchun ajratilgan ko'rsatkichlar bo'yicha natijalarni statistik jihatdan o'rta qiymatlarga keltirilgan ko'rsatkichlardan foydalandik. O'rtacha qiymatlar $M = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n a_i$. Formulasi yodamida hisoblandi. Ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymatlarini hisoblash umumlashtirilgan 2-jadvalning o'ng tomoniga kiritilgan.

